

ISSN:3060-4567 Modern education and development
O'ZBEK TILSHUNOSLIGI FRAZELOGIYASI VA UNING
GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Ilmiy rahbar: Saydamatov I.N

O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti

Ingliz filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Abdulloyeva Munisaxon

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek tilshunosligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan frazeologiya sohasi va frazeologizmlarning grammatik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Bir-biriga bog'langan so'zlarning ma'lum bir ma'noni anglatuvchi barqaror birikma, odatda, o'zaro bog'liq bo'lgan so'zlarning ma'nosi bilan emas, balki butun birlik ma'nosi frazeologiya deb ataladi. Frazeologik birliklar ko'pincha o'ziga xos grammatik xususiyatlarga ega bo'lib, ularni tushunish va foydalanish tilning boyligini aks ettiradi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologizmlar, grammatik roli, frazeologik xususiyatlar, frazeologizmlarning ma'no farqlanishlari, frazeologik turlar

Abstract: This article reflects on the field of phraseology, which is one of the important branches of Uzbek linguistics, and the grammatical features of phraseologisms. A stable combination of connected words that means a certain meaning, usually not the meaning of the related words, but the meaning of the whole unit is called phraseology. Phraseological units often have their own grammatical features, and their understanding and use reflect the richness of the language.

Key words: phraseology, phraseologisms, grammatical role, phraseological features, meaning differences of phraseologisms, phraseological types

Frazeologiya yunoncha so'z bo'lib, phrasis - ifoda va logos- ta'limot degan ma'noni anglatadi va bu atama 2 ma'noda ishlatiladi: 1) til frazeologik

tarkibini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi; 2) shu tilning frazeologizmlari majmui.

Frazeologizmlar til hodisasi sifatida nutqqa daxldor birliklardir, bu birliklarning ma'nosi bir so'zga teng keladi. Frazeologizmlar ibora, frazeologik birlik, frazeologik birikma deb ham yuritilishi mumkin.

Frazeologiya- leksikologiya bo'liming tarkibiy qismi. Frazeologizmlarni tashkil etuvchilarga ko'ra qo'shma leksemalar, so'z birikmasi va gaplarga o'xshaydi. ular nutq jarayonida gaplar tarkibida bir mustaqil so'z kabi harakat qiladi, bir gap bo'lagi yoki kengaytiruvchi sifatida keladi. Kavushini to'g'rilab qo'yish kerak. (A. Muxtor) Bunda frazeologizm butun bir egasiz gap vazifasida kelgan.

Frazeologiya xususiyatlari barqarorlik, butunlik va idiomatiklikni o'z ichiga oladi.

- Barqarorlik: frazeologik birliklar o'zgarishsiz ishlatiladi. Ularga yangi so'zlar qo'shish yoki ularning tartibini o'zgartirish mumkin emas.

- Butunlik: frazeologik birliklar butun birlik sifatida ma'no anglatadi. Ularni tarkibiy qismlarga ajratib bo'lmaydi.

- Idiomatiklik: frazeologik birliklarning ma'nosi ularning tarkibiy qismlarining ma'nosidan farq qiladi.

Masalan, " ko'ngil qo'yish" iborasi "ko'ngil" va "qo'yish" so'zlarining ma'nosidan farqlanadi.

Frazeologizmlar tilshunosligimizda muayyan so'z turkumlari bo'yicha tasnif qilinmagan. Biroq ularning nimani ifodalashiga qarab tasniflashimiz mumkin. O'zbek tilida frazeologizmlar, asosan, belgi va harakatni ifodalaydi va grammatik jihatdan belgi va harakat bildiruvchi so'z turkumlariga mansubdir.

- Fe'l so'z turkumiga mansub frazeologizmlar: ko'ngil qo'yish, qo'l siltash, holdan toymoq;

- Sifat soʻz turkumiga mansub frazeologizmlar: ogʻzi qulogʻida, katta ogʻiz , kayfi chogʻ , soʻxtasi sovuq;
- Ravish soʻz turkumiga mansub frazeologizmlar: ipidan ignasigacha, ikki dunyoda ham, ha-ha deguncha ;
- Soʻz-gaplarga mansub frazeologizmlar: turgan gap, shunga qaramay, katta gap.

Gap tarkibida iboralar oʻzi teng kelgan soʻzning soʻrogʻini oladi va yaxlit holatda gap boʻlagi vazifasida keladi, shuningdek, ular gapda turli xil sintaktik vazifani bajarishi mumkin. Masalan, men “koʻngil qoʻyish” ga ishonaman – toʻldiruvchi vazifasida kelishi.

Tarvuzi qoʻltigʻidan tushgan holda kirib keladi- hol vazifasida kelishi.

Ibora soʻz birikmasi yoki gap singari nutq jarayonida hosil boʻlmaydi, balki xuddi leksema kabi tilda tayyor holda boʻladi.

Demak, ibora nutq hodisasi emas, balki lisoniy birlikdir.

Shuningdek, frazeologik birliklar bir butunlik sifatida qabul qilinadi va mustaqil grammatik qoidalarni oʻz ichiga olmaydi. Baʼzi frazeologik birliklar kontekstga qarab oʻzgarishi mumkin, lekin koʻp hollarda ularning shakli doimiydir. Ularni oʻzgartirish yoki qisqartirish qiyin.

Frazeologizmning stilistik roli ham muhimdir, ular nutqning rang-barang va ifodali boʻlishini taʼminlaydi.

Baʼzi frazeologizmlar har bir tilga xos boʻlishi mumkin. Ammo bir tilda mavjud boʻlgan ibora boshqa tilga soʻzma-soʻz aynan tarjima qilinmaydi.

Frazeologizmlar, asosan, bir maʼnolidir. Shu kabi polisemantik frazeologizmlarda ham uchrab turadi. Masalan, aqli yetadi frazeologizmi “idrok etmoq” , “ishonch hosil qilmoq” maʼnosiga, boʻyniga olmoq iborasi uchta – “aybini birovga toʻnkamoq”, “isbotlab eʼtirof qildirmoq”, “biror ishni bajarishni birovning zimmasiga yuklamoq” maʼnolariga , qoʻlga olmoq iborasi esa toʻrtta –

“ o’z ixtiyoriga o’tkazmoq”, “qo’qqisdan hujum qilib bosib olmoq”, “qamash maqsadida tutmoq” ,” bir yo’l bilan o’z xohishiga bo’ysunadigan qilmoq” ma’nolariga ega.

Leksiyada bo’lgani kabi frazeologiyada ham lisoniy-semantik munosabatlar amal qiladi: frazeologik sinonimiya , frazeologik antonimiya, frazeologik omonimiya. Shuningdek, frazeologizmlardagi darajalanish , giponimiya , funktsionimiya, ierarxionimiya kabi semantik munosabatlar o’z tadqiqotlarini kutmoqda.

Frazeologiya turlari va frazeologizmlarning gapda ishlatilishi tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega, chunki frazeologik birliklar tildagi barqaror so’z birikmalari bo’lib, ular til madaniyati, milliy tafakkur va obrazlilikni ifodalashda xizmat qiladi. Frazeologizmlar o’zining turlicha grammatik va sematik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Uning bir nechta turlari mavjud:

1. Idiomalashgan frazeologizmlar:

Bu turdagi frazeologizmlar butunlay metaforik ma’no kasb etadi va tarkibidagi so’zlarning lug’aviy ma’nosi bilan bog’liq bo’lmaydi. Ular butun bir birlik sifatida yangi ma’no ifodalaydi. Masalan:

“Tili zahar” – o’ta achchiq gapiradigan odamni anglatadi.

2. Metaforik frazeologizmlar:

Ushbu frazeologiyalar tarkibidagi so’zlar ma’lum bir obrazli ma’no hosil qiladi. Ular odatda o’z ma’nosida ishlatilmaydi, balki biror narsa yoki holatni boshqa narsa orqali ta’riflaydi. Masalan:

“Qo’l qovushtirib turmoq” – hech narsa qilmaslik, harakatsizlik.

3. Nisbatan erkin frazeologik birikmalar:

Bu frazeologizmlar ma’nosi biroz erkinroq bo’lib ularni tarkibiy qismlarini o’zgartirish mumkin, ammo ular baribir aniq kontekstda birikma bo’lib ishlaydi:

“Yurak yutib” - jasorat ko’rsatmoq.

4. Terminologik frazeologizmlar:

Ba'zi frazeologik birliklar ma'lum bir soha yoki fan doirasida ishlatiladi va ular maxsus ma'nolarni ifodalaydi:

“Erkin bozor” - iqtisodiy termin

“ Ijtimoiy adolat” – sotsiologiyada ishlatiladigan frazeologizm.

5. Paromafiy frazeologizmlar(maqollar yoki hikmatli so'zlar):

Bu turdagi frazeologizmlar ko'p hollarda o'g'itli , didaktik ma'no kasb etuvchi maqollar va hikmatli so'zlar orqali ifodalanadi.

“ Yaxshi niyat -yarim davlat” .

Xulosa:

Frazeologiya tilni boyituvchi va ifodali vosita sifatida xizmat qiladi hamda tildagi nutqiy jarayonlarda o'z ahamiyatiga ega. U tilning boyligini oshiradi, madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Frazeologizmlarning grammatik xususiyatlarini tushunish ularni to'g'ri ishlatilishga va tilni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Mengliyev . Hozirgi o'zbek adabiy tili. Qarshi.2004.
2. Usmonov. S. Umumiy tilshunoslik. Toshkent . 1972.
3. Ne' matov H, Rasulov. R. O'zbek tili system leksikologiyasi asoslari . Toshkent. 1995.
4. Tursunov . U va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent.1992.
5. A.Hojiyev. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. Toshkent.1985
6. Rahmatullayev.Sh . O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent. 1978